



**«TASDIQLAYMAN»**

**Foshkent shahar statistika  
boshqarmasi boshlig'i**

**E. Mirsoatov**

**“22” iyul 2022- yil**

**Toshkent shahar statistika boshqarmasida  
korrupsiyaga qarshi kurashish mavzusida  
bo‘lib o‘tgan yig‘ilish**

**BAYONI №6**

2022- yil 22-iyul

Toshkent sh.

**Yig‘ilish raisi:**

L. Mirsoatov – boshqarma boshlig‘i.

**Qatnashganlar:**

Sh.Norkulov – Boshqarma boshlig‘ining birinchi o‘rinbosari

S.Annazarov – Boshqarma boshlig‘i o‘rinbosari

Boshqarma tarmoq bo‘limlari va tuman statistika bo‘limlari xodimlari

**KUN TARTIBI:**

**1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 12-yanvardagi PQ-81-son “Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi”gi qarorining muhokamasi.**

**2.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi PQ-240 sonli “Davlat boshqaruvi sohasida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish mexanizmlarini takomillashtirish va ushbu sohada jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori to‘g‘risida.**

---

*(L.Mirsoatov, Sh.Norkulov, S.Annazarov, Sh.Shaagzamova, M.Usmonov,  
B.Shakarov, L.Mirsoatov)*

Yig‘ilishida, Toshkent shahar statistika boshqarmasi boshlig‘i L.Mirsoatov so‘zga chiqib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 12-yanvardagi PQ-81-son “Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi”gi qarori yuzasidan boshqarma va tuman statistika bo‘limlari xodimlariga qisqacha tushunchalar berib o‘tdi.

Shuningdek, davlat organlari va tashkilotlari, shu jumladan mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi faoliyatiga oid samaradorlik ko‘rsatkichlarini belgilash va ularni ilg‘or xalqaro



standartlar asosida baholash tizimini joriy etish maqsadida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha milliy kengash, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, Bosh prokuratura va Adliya vazirligining davlat organlari va tashkilotlari, shu jumladan, mahalliy davlat hokimiyati organlarida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha chora-tadbirlarning samaradorligini tahlil qilish, baholash va kamchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimini joriy etish to'g'risidagi taklifi ma'qullanganligi ta'kidlandi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi PQ-240 "Davlat boshqaruvi sohasida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish mexanizmlarini takomillashtirish va ushbu sohada jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorini ma'no-mohiyatini boshqarma va tuman bo'limi xodimlariga tushuncha berdi.

Mamlakatimizda davlat organlari va tashkilotlarning korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi faoliyatini takomillashtirish doirasida ularga yuklangan vazifa va funksiyalarni amalga oshirishda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash tizimini izchil joriy etilganligi takidlab o'tdi.

Shu bilan birga, Yangi O'zbekiston sharoitida korrupsiyaviy omillarni aniqlash, baholash va bartaraf etish jarayonida tegishli sohalarni raqamlashtirish va ta'sirchan jamoatchilik nazoratini yo'lga qo'yishga e'tiborni yanada kuchaytirish zaruriyati vujudga kelgani aytdi.

Shuningdek, "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" muvofiq bir qator loyihalardan o'rin olgan korrupsiyaga xam katta e'tibor berilgan bo'lib "E-Anticor.uz" loyihasi 2022-yil 1-sentabrdan boshlab to'liqligicha ishga tushurilishini aytdi.

Boshqarmaning tarmoq va tuman statistika bo'limlari rahbarlari, xodimlari qonun hujjatlariga rioya etishi, o'z mansab yoki xizmat majburiyatlarini beg'arazlik bilan, xolisona, vijdonan, odob-axloq qoidalariga rioya etgan holda bajarishi hamda korrupsiyaga oid biror-bir huquqbuzarlikni sodir etishdan yoki bunday huquqbuzarliklarni sodir etish uchun shart-sharoitlar yaratadigan boshqa har qanday harakatlardan o'zini tiyishi shartligi yuzasidan ogohlantirildi.

Shuningdek, 2022-yilda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha idoraviy kompleks chora-tadbirlar rejasi ijrosini ta'minlash yuzasidan boshqarma hamda tuman statistika bo'limlari majburiyatlari to'g'risida batafsil ma'lumotlar berildi. Ushbu chora-tadbirlar rejasida belgilangan vazifalarni o'z vaqtida bajarish yuzasidan boshqarmaning tarmoq va tuman statistika bo'limlariga tegishli topshiriqlar berilganligi qayd etildi.

Bundan tashqari, joylarda tashkil qilinayotgan profilaktika ishlarini tashkil qilishda yuqoridagi chora-tadbirlar rejasida berilgan topshiriqlarni qat'iy amalga oshirishlari, tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatini qo'llab-quvvatlash borasida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti hujjatlari va Hukumat qarorlari, statistika sohasiga oid qonunchilik va me'yoriy-huquqiy hujjatlar talablarini yangi



tashkil topgan hamda faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik sub'ektlariga tushuntirish ishlarini kuchaytirish, bunda joylardagi seminar uchrashuvlar va "Ochiq eshiklar kuni"da tadbirkorlik sub'ektlariga davlat statistika hisobotlarini belgilangan muddatlarda taqdim etishlari lozimligi to'g'risida doimiy ravishda tushuntirishlar berib borishlari yuzasidan topshiriqlar berib o'tildi.

Shu bilan birga, boshqarma hamda tuman statistika bo'limlari xodimlarining odob-axloq qoidalariga amal qilishlari to'g'risida to'xtalib o'tildi.

Kun tartibidagi masalalar va ular to'g'risidagi fikr-mulohazalardan kelib chiqib yig'ilish

### **QAROR QILADI:**

1. Toshkent shahar statistika boshqarmasi boshlig'i L.Mirsoatov so'zga chiqib, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 12-yanvardagi PQ-81-son "Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risidagi"gi qarori va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi PQ-240 "Davlat boshqaruv isohasida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish mexanizmlarini takomillashtirish va ushbu sohada jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori yuzasidan hisoboti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Boshqarmaning tarmoq va tuman statistika bo'limlari boshliqlariga:


Toshkent shahar statistika boshqarmasi boshlig'i L.Mirsoatov so'zga chiqib, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 12-yanvardagi PQ-81-son "Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risidagi"gi qarori bandlarida berilgan barcha topshiriqlar so'zsiz bajarilishi ta'minlansin hamda amalga oshirilgan ishlar bo'yicha ma'lumotlar rahbariyatga kiritilsin;

3. Boshqarmaning bosh yuriskonsulti (M.Usmonov)ga:

Har chorak yakuni bo'yicha boshqarma va tuman statistika bo'limlari tomonidan xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga nisbatan qo'llanilgan ma'muriy jarimalarni O'zbekiston Respublikasi MJtK talablari asosida to'g'ri qo'llanilganligi yuzasidan o'z tavsiyalari berib borilsin.

4. Ushbu seminar qarorlari ijrosini nazorat qilishni o'z zimmamda qoldiraman.

Yig'ilish kotibi



Sh.Shaagzamova